

Qudaybergenov Raxat Amangeldievich

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus Tumani, Baqanshaqli Ofy, Mamiqshi Ovul, 35-Uy

Annotatsiya: *Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik-pedagogik tekshirish, ushbu muxitga moslashtirish va qo‘llab quvvatlash o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va aqliy saloxiyatini oshirishni muxim tamoyilaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ilk yoshdagi bolani psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy maksadi: bolaning ruxiy rivojlanish darajasini aniqlash, psixik funksiyalarining shakllanish xususiyatlarini urganish, ruiy rivojlanishidagi buzilishlar (nuksonlar) xarakteri va darajasini aniqlashdir.*

Аннотация: *Психолого-педагогическое обследование младших школьников, адаптация и поддержка в этой среде является одним из важных принципов развития мышления и интеллектуального потенциала учащихся. Основной целью психолого-педагогического обследования ребенка первого года жизни является определение уровня психического развития ребенка, изучение особенностей сформированности психических функций, определение характера и степени выраженности нарушений (дефектов) психической деятельности.*

Abstract: *Psychological and pedagogical examination of primary school students, adaptation and support to this environment is one of the important principles of developing students' thinking and intellectual capacity. The main purpose of psychological and pedagogical examination of the first-year child is to determine the level of mental development of the child, to study the characteristics of the formation of mental functions, to determine the nature and extent of disorders (defects) in mental development.*

Kalit so‘zlar: *tafakkur, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, talim jarayoni, mashg‘ulot jarayoni, predmetlar.*

Ключевые слова: *мышление, младшие школьники, учебный процесс, учебный процесс, предметы.*

Keywords: *thinking, elementary school students, learning process, learning process, subjects.*

KIRISH

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aqliy saloxiyatini, tafakkurini oshirishda psixologik-pedagogik tekshirish, ko‘llab quvvatlash muxim omil sanaladi. Go‘dak va ilk yoshdagi bolani psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy maqsadi: bolaning ruxiy rivojlanish darajasini aniqlash, psixik funksiyalarining shakllanish xususiyatlarini o‘rganish, ruxiy rivojlanishidagi buzilishlar (nuqsonlar) xarakteri va darajasini aniqlashdir. Psixologik-pedagogik tekshirish vazifalariga quyidagilar kiradi:

bolaning xissiy va kommunikativ doirasining rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;



sensor va xarakter funksiyalarining rivojlanish darajalarini aniqlash va tavsiflash;
bolaning aqliy nutq darajasini aniqlash
bola va ota-ona munosabatlarining yoshiga moslik darajasini anikdash;
bolaning ruxiy rivojlanish saloxiyatini aniqlash ,
ota-onalar va mutaxassislar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar taxlili va metodologiyasi Masalan: Kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik tekshirish, bolaning qobilyati, qiziqishlari va fikrlash darajasini aniqlashga xizmat qilad, chunki bu yoshda bolaning im-koniyatlari va xususiyatlariga mos ta'lim sharoitini yaratish, tegishli ta'lim muassasasini tanlash zaruriyati kelib chikadi. Uquv dasturi tipini eng avvalo bolaning intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda tanlangani sababli intellektidagi turli yetishmovchiliklar, ularning darajalarini tuzilishini, aniqlashda eksperimental-psixologik tekshirish muxim axamiyat kasb etadi. Intellektul yetishmovchilikning turli formalarini differentsial tashxis etish vazifalarini xal etishda eksperimental tekshirish metodikalarining bayoni me'yorida rivojlanayotgan, ruxiy rivojlanishi sustlashgan xamda aqli zaif bolalarni tekshirish natijalarining interpretatsiyasini o'z ichiga oladi.

Muhokama bolaning xarakteri, qiziqishlari va imkoniyatlarini aniqlash o'qish jarayonining zarur sharti bo'lib xisoblanadi. Idrokning to'laligi, to'g'riligi, tezligi, esda qoldirishning tez va aniqligi avvalo o'quvchining diqqatiga boglikdir. Fikrlash jarayonlari diqqat tufayli aniq, mantiqli, mazmunli bo'ladi. Chunki, o'quvchilarning mustakil ravishda masala yechishlari va masala tushunishdan oldin ular diqqatning kuchi va barqarorligini ta'minlaydi.

O'quvchilarning aqliy faoliyatining zarur shartlarini ta'minlash uchun o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatining xususiyatlarini va bola psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Diqqat asosiy nerv jarayonlari bo'lgan ko'zgalish va tormozlanishning yoki xususiyatlari to'laligicha namoyon bo'ladigan psixik aktivligining muxim tomonidir. Qo'zgalish va tormozlanish jarayonlari kichik yoshdagi o'quvchilarining bosh miya yarim sharlari po'tsida juda tez paydo bo'ladi. Shu sababli agar bir kuzgaluvchi bolaning miya kobigida ko'zgalishni vujudga keltirsa, 2 qo'zgovchi bosh miyada juda tezlik bilan yangi qo'zgalish o'chogini tormozlab ko'yishi mumkin. Bu kichik yoshdagi bolaning diqqatini juda tez va oson chalgitish mumkinligini ko'rsatadi.

O'quvchilar diqqatining bu xususiyatining ularning o'qish materiallarini uzlashtirishlariga xalakit beradi. Shu sababli o'qituvchi bola diqqatini bunday xususiyatlarini doimo esda tutgan xolda, darsning uning bir momenti bilan ikkinchisini bog'lab, utsalik bilan o'tkazishi va bu momentlarning bir-birini tormozlab ko'ymasligi uchun darsning xar bir boskichini yaxshilab o'ylab kurishi va bolaning diqqat markaziga tasir o'tkaza olishi kerak. Bunda avvalo o'qituvchidan pedagogik maxorat talab etiladi.

O'qish faoliyati tomonidan qo'yilgan jiddiy talablarning bir qismi tabiiy o'quvchilarning diqqatini ishga soladi. O'qish jarayonining ta'siri ostida kichik yoshdagi



o'quvchilar diqqatining barcha xususiyati va sinflari intensiv ravishda o'sib boradi va bu bilan ixtiyorsiz diqqatidan ixtiyoriy diqqatga ko'chish osonlashadi.

Natija O'qish faoliyatining birinchi davrlarida o'quvchilarning ixtiyoriy diqqati butunlay o'qituvchining xukumronligida bo'ladi. O'quvchilarning darsdagi diqqatini 1-sinf o'quvchilarining o'zlari emas, balki o'qituvchining o'zi tashkil qiladi va yo'lga soladi. Masalan, darsda kichik yoshdagi o'quvchi o'z diqqatini tarkokligini yenganligini uchun emas, balki o'zi itoat etishga majbur bo'lgan, o'qituvchining ta'siri otsida quloq solib o'tiradi. Muayyan maqsadga karatilgan barqaror diqqat bolalarda xam uncha rivojlanmagan tarmoklanish jarayoni bilan bog'langandir. Ma'lumki, idrok xam bilim manbaidir. Idrok murakkab aqliy jarayondir. Idrokda retseptiv, pertseptiv va appertseptiv tamonlarni ajratish mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilarda idrokning o'sishi yuqorida ko'rsatilgan retseptiv, pertseptiv va appertseptivdan iborat barcha tamonlarini qayta tuzilishi va o'sishi demakdir.

O'quvchilar predmetlarni, ularning tasvirini va nutkini idrok qiladilar. Bolalar predmetlarni idrok kilishi xususiyati ularni batafsil anik aks ettirishlari bilan xarakterlanadi. Bular diqqatning xususiyati bilan tushuntiriladi. O'quvchilar diqqati asosan tashki diqqat xarakterida bo'lib, ichki diqqat ularda xali taraqqiy etmagandir. SHuning uchun yaxshi tanlangan ko'rgazmali qurol kichik yoshdagi o'quvchilarni uqitishda foydalidir. Kichik maktab o'quvchilariga ta'lim berishda biror kurinishni, biror predmetni aks ettiruvchi rasmlar va boshka ko'rgazmali qurollar katta ahamiyatga egadir. Tafakkur faoliyati kichik yoshdagi davrda aloxida ravishda kayta tuzuladi. Bu kayta tuzulish nimadan iborat? O'quvchilarga 1- sinfdayok tovush xarfi, gap, kushish, ayirish kabi ko'plab mavxum tushunchalarni bilib olish to'g'ri keladi. Bolalar bu tushunchalarni bilishda tayyor mantiqiy ta'riflardan foydalanadilar. Ilmiy tushunchalarni bilishda egallash oson emas. Muximi shundaki, 1-2 sinf o'quvchilari tushunchalarni mutsakil ravishda ta'riflaganlarida ko'pincha bu tovush tushunchalarni mutsakil ravishda tushunchalarning muxum belgilarigina emas, balki unga ahamiyatli bulmagan narsalarni kursatadilar.

Maktabda ta'lim esa aniqlikni talab etadi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus laekatlar ko'nishklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashki xarakatlarning sintezi yuzaga keladi. Biron bir narsani idrok kilish jarayonida bu sintez pertseptiv xarakatlarda, diqqatda ichki va tashki xarakatlar va xolatlar rejasini boshkarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saklab kolish va esga tushirishning ichki va tashki to'zilasini bog'lay olishda ko'rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayoniga birlashtirish sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. SHuning asosida insoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi.

Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur kilish omili sifatida ichki nutk yuzaga kelayogganligidan dalolat beradi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunida



boshlaydi. Nutk asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egaldaniladi. Bu me'yor va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

Xulosa Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini aqliy, axloqiy va tafakkurini rivojlantirishda birinchi navbatta bolaning o'zi va ota onasi o'rtasidagi aloqalarni o'rganish, taxlil qilish va shunga asoslanib bolaga psixologik tasir qilish muxim axamyatga ega. Kichik yoshdagi bolalarda o'quv jarayoni boshlanganda uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil tushunchalar uyg'onadi. Bularning xammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshka bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jixatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatleri, layoqatlari, muvaffakiyat va muvaffakiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi xisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A Uzbekiston iktisodiy islohotlarni chukurlashtirish yo'lida. T.: «Uzbekiston» 1995.
2. Davaetshin M.G. Zamonaviy maktab -o'kituvchisi psixologiyasi. -Toshkent 1998.
3. Psixologiya. kiskacha izogli lugat .Toshkent, 1998.
4. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.1991.
5. Umumiy psixologiya.P.I.,Ivanov.
6. Psixologiyadan ma'ruzalar matni. Toshkent.1999y
7. Umumiy psixologiya M.V.Voxidov. Toshkent 1992 yil.
8. Umumiy psixologiya A.V.Petrovskiy. Moskva1976 g

